

**O'ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**10.00.06 – “QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG’ISHTIRMA
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK” IXTISOSLIGI BO‘YICHA
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI
DASTURI**

Mazkur dastur 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha dasturi ixtisoslik talablari, mazmuni va asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Doktaranturaga talabgorlarga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishda ushbu dastur savollaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Qo'qon davlat universiteti o'zbek tili kafedrasining 2025-yil _____dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan (№ _____-son bayoni)

Mazkur dastur Qo'qon davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2025 yil _____dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tavsiya etilgan (№ _____-son bayoni)

Tuzuvchi

D.Jamoliddinova
F.f.d (DSc), professor

Taqrizchilar:

Sh.Iskandarova
– filologiya fanlari doktori, professor (FarDU)
D.Nabiyeva
– filologiya fanlari doktori, professor (ADU)

KIRISH

Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiyotlararo jarayon taraqqiyoti qonuniyatlarini anglashga, badiiy matnning qiyosiy tahlil usuli haqida tasavvur va umumgumanitar bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Fan adabiy jarayonlarning tarixiy taraqqiyoti va ularning muhim ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqligi, jahon adabiyotidagi ustuvor adabiy yo'nalish va oqimlar, shoir, yozuvchilar hayoti va ijodi, ularning badiiy merosini qiyosiy o'rganadi.

Chog'ishtirma tilshunoslikka turli tillarning rivojlanishi, uning dialektik ko'rinishlari, leksik, grammatik, fonetik va frazeologik ko'rinishlari, tarjimashunoslikning dolzarb masalalari va ularning yechimlari, fanning o'ziga xos jihatlari o'rganiladi. Til haqida obyektiv mulohaza yuritish, uning mazmuniy estetik jihatini ham nazarda tutgan holda nutqiy ifodaning ta'sirchanligi yuzaga keltiradigan lisoniy vositalarning tabiatini, ularning badiiy nutq tarkibida kasb etadigan qo'shimcha ma'no va ma'no belgilari hamda vazifalarini tahlil qilish orqali mukammal ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tarjimashunoslik umumjahon adabiy-tarixiy muammolari yoritish va qiyoslash, adabiy jarayondagi o'zaro aloqani ko'rsatish, milliy adabiyotni jahon adabiyoti bilan o'zaro bog'liqlikda o'rgatishga yo'naltirilgan.

Ushbu fan bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning lingvistik asoslari, tarjimaning metodik aspektlari, uning leksik-semantik, grammatik, stilistik va pragmatik muammolari, milliy o'ziga xos so'zlar tarjimasini kabi masalalarni qamrab oladi. Tarjimaning og'zaki va yozma shakllari, badiiy tarjima, turli sohaga oid mammlar tarjimasini, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik kabi mavzularni o'zlashtirish orqali tarjimaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrda "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarning shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 696-son va 2021-yil 24-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon topshiruvchilar ushbu yo'nalishda nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlash uchun zaruriy zamonaviy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning asosiy muammolari bo'yicha o'z bilim va mahoratlarini namoyish etadilar, bu boradagi zamonaviy tilshunoslikdan xabardorligi, ularni amaliyotda qo'llashi haqidagi bilim va qarashlari darajasiga baho beriladi.

TALABGORLAR BILIMLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

- talabgorlar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik mohiyatining manbai, tarixining asosiy bosqichlari, ushbu soxadagi yangi ilmiy yutuqlar borasida tasavvurga ega bo'lishi;
- qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi filologik komparativistika, lingvistik komparativistika, adabiyotshunoslik komparativistikasi hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo'lishi;
- qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik, chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalarini bilishi;
- ta'lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va amalda qo'llay olishi;
- hozirga qadar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalarini yuzasidan bir qator olib borilgan ilmiy izlanishlar va mazkur sohalariga doir tadqiqotlar bo'yicha xabarlar bo'lishi;
- yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko'rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

ASOSIY QISM

10.00.06 - QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG'ISHTIRMA
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK IXTISOSLIGI BO'YICHA
MAVZULAR:

- I. Qiyosiy adabiyotshunoslik: nazariy poetika, jahon adabiyoti muammolari, adabiyotshunoslik metodologiyasi, adabiyotshunoslik nazariyasi;
- II. Chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik: til va jamiyat, sinergetikaning tayanch tushunchalari, sinergetika va dialektika munosabati, lingvosinergetikaning nazariy asoslari, tilshunoslik va sinergetika, lingvokulturologiya va uning o'ziga xos xususiyatlari, til hodisalariga sinergetik yondashuv, antropolingvistik fan sifatida, inson va jamiyat, til va jamiyat, inson va til, turkiy tillar va xalqlar, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, **til va tafakkurning o'zaro munosabati, tarjimashunoslik.**

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish. Qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik, komparativizm tushunchalari haqida, G'arb va Sharq madaniy aloqalari.

Adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy uslub taraqqiyoti. Qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari. Qiyosiy-tarixiy jarayonlarni uyg'unligi, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, I.G.Neupokoeva, D.Dyurishin va

A.N.Veselovskiyning fan taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi. Mifologik maktabning taraqqiyoti va uni qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri (Yakob va Vilgelm Grimm, A.Kun, M.Myuller, F.I.Buslaev, A.N.Afanasev, O.F.Miller). Turli millat afsonalari umumiyligi. Madaniy-tarixiy maktab asoschilarini qiyosiy-tarixiy uslubga bo'lgan ta'siri (I.Ten, V.Sherer, G.Lanson, G.Brandes, J.Lyuis, A.N.Pupin, N.S.Tixonravov). Qiyosiy-tarixiy uslubni adabiyotlararo jarayonda rivoj. Tarixiy-tipologik konvergensiya.

O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq adabiyotining taraqqiyoti. O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq adabiyotining qiyosiy tahlili, taraqqiyot yo'nalishlari. Og'zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidagi o'rni. Og'zaki xalq ijodi janrlari. Uyg'onish davri adabiyotining ahamiyati. Uyg'onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi. Sinxron va diaxron ta'sirlar.

Ma'rifatparvarlik adabiyoti. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g'oyalarga ta'siri. Ma'rifatparvarlik adabiyotimutafakkirlari – Klod Gelvetsiya va Iogann Vinkelman. Adabiyotshunoslik asoschisi – Iogann Gerder (1744-1803). Adabiyotshunoslikning tarixiy fan sifatida taraqqiyoti. G.F.V.Gegelning (1770-1832) hayotni dialektik anglash konsepsiyasi, san'atda ma'no va shakl, qarama-qarshiliklar qonuniyatiga munosabati.

Adabiyotshunoslikda metodologik tendensiyalar. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy tahlili adabiy g'oyalarga ta'siri. XIX asr mutafakkirlari pozitsiyasining qiyosiy-chog'ishtirma adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi, Gegel, Chernishevskiyning g'oyalari ahamiyati.

XX asrda qiyosiy adabiyotshunoslik taraqqiyoti. AQSH (R.Uellek, V.Friderix), Germaniya (M.Kestmg, K.Vays, K.Xamburger), Fransiya (Klod Pishua, Anri Granjar), Ruminiya (A.Dima), Slovakiya (D.Dyurishm), Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari.

Badiiy adabiyot taraqqiyoti qonuniyati. Adabiy oqimlar va yo'nalishlar. Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo'nalishlari xususiyatlari. Realizmning adabiy yo'nalishlari. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va „O'zga so'z“ muammosi.

Badiiy asar qiyosiy tahlili. San'atda va hayotda shakl va ma'no tushunchasi. Shakl va ma'no – falsafiy tushunchalar. Shakl va ma'no o'rtasidagi munosabat. Asarning „ichki shakl“ va „tashqi shakl“i va uning san'at va adabiyotd mazmunini. San'at hayotni anglash vositasi. San'at – borliqni va ijtimoiy ong taraqqiyoti omili. Badiiy ijodda ma'no va shakl. Asarning obyektiv g'oyasi va

muallif g'oyasi. Xarakter, kompozitsiya va syujet. Badiiy tasvirming estetik ahamiyati. Tasvirming hayotiyligi va xalqchilligi. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi. Yozuvchi tilning manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli.

Badiiy adabiyotning narratologik xususiyatlari. Badiiy asarning lisoniy xususiyatlari. Badiiy asarlarda adabiyotlararo dialogizm masalasi. Muallif obrazining badiiy asarda aks etishi. So'zlarning ko'chma ma'nosi (troplar va ularning turlari). Intonatsiya va sintaksis. Lingvokulturologik aspektda so'zlarning ko'p ma'noliligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli.

CHO'G'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalari. Tipologiya tilshunoslikning alohida bo'limi. Izomorfizm va allomorfizm tushunchalari, xususiy tipologiyaning tiplari. Lingvistik tipologiyaning tillar qurilishidagi xususiy, ayrim o'xshash va farqli tomonlarni emas, balki umumiy o'xshash va farqli jihatlarni o'rganadigan fan ekanligi. Tipologik tadqiqotlar genetik qardosh tillar doirasi bilan cheklanmasligi va har xil qurilishli tillar hisobiga o'z chegaralarini kengaytirishi.

Til turi lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi. "Til tipi", "tilda tipi", "lisoniy tipi" tushunchalarining o'zaro farqi. XIX asrda tillarning morfologik tasnifi. Til tipi lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida o'ta murakkab va dolzarb muammolar sirasiga kirishi. Uning tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinayotgani. Xorijiy va o'zbek tillariga xos umumiy belgilarning olti guruhga bo'linishi. "Til tipi" tushunchasining ta'riflari.

XX asrda tipologik tadqiqotlarning rivojlanishi. Tillar tasnifining tiplari bo'yicha o'rganilishi. Til tipini aniqlash uchun formal munosabatlar va unsurlar orasidagi munosabatlar tipi hisobga olishning zarurligi. XIX asrda til tasnifi so'zning formal belgi va xususiyatlari asosida qilinganligi. XX asr tilshunos-tipologlariformal unsurlar orasidagi munosabatlar turini hisobga olganligi sabablari. XIX va XX asrlarda tillararo tipologiya tasnifidagi farqlar. Agglyutinativ va flektiv tillarda grammatik ma'nolarning, asosan, so'z doirasida, uning tarkibiga kiruvchi affiksalar yordamida ifodalanishi. Leksik va grammatik ma'nolarning bir til birligida mujassam ekanligi sabablari.

Til sathlarining barcha tipologik belgilarini hisobga olish til tipini aniqlashning muhim sharti ekanligi. U yoki bu til tipini aniqlash barcha til sathlari tipologik belgilarini hisobga olishga asoslanganligi. V.Skalichka (chex tilshunosi) o'zining "Tipologiya haqidagi masalaga doir" asarida besh hil til tipi borligi haqida yozgani.

Etalon til masalasi. V.Skalichka tasnifida dunyo tillari besh tipga (flektiv, intraflektiv, agglyutinativ, izolyatsiyalovchi va polisintetik) bo'linganligi, biroq birorta ham sof flektiv yoki sintetik til yo'q ekanligi sababi. U yoki bu til tipologiyasini ilmiy ta'riflash uchun qandaydir o'lchov (mezon) lozimligi, shuning uchun etalon tilga ehtiyoj sezilayotganligi.

V.D.Arakinning tipologik pasport konsepsiyasi. V.D.Arakin - tipologik olim. Uning tillar tipologiyasiga doir ishlari. V.D.Arakin tomonidan beshta til (rus, ingliz, island, turk va taiti tillari)ning "tipologik pasporti" ishlab chiqilgan. Bunday pasportlarni yaratishning ahamiyati V.D.Arakin tipologik pasportni ishlab chiqishda tilning tipologik "yuz"ini ochib beruvchi eng muhim tipologik jihatlariga asoslanganligi: 1) fonemalar tarkibi; 2) fonemalarning tuzilishi; 3) urg'u; 4) bo'g'in tuzilishi; 5) intonatsiya; 6) grammatik kategoriyalar tarkibi; 7) so'z birikmasi; 8) gap; 9) so'z tuzilishi; 10) so'z yasallishi; 11) umumiy xulosa.

Universaliylar ta'rifi. Universaliylar masalasi tillar tipologiyasida asosiy o'rinlardan birini egallashi. Dunyoning barcha yoki aksariyat tillari uchun umumiy qonuniyatlarni ko'rsatib beruvchi universaliylar ayni paytda tilda nima boru, nima yo'qligini ham aniqlashga yordam beruvchi vosita ekanligi. Til hodisalarining umumiyliги mazmuniy yoki shakliy hodisaligi munozarali ekanligi.

Lisoniy universaliylarning asosiy ko'rinishlari. Universaliylar tasnifining murakkabligi va bu boradagi munozarali holatlar. Universaliylarning turlari: 1) ekstralingvistik va sof lingvistik universaliylar; 2) fonologik, grammatik va leksik universaliylar; 3) sinxron universaliylar; 4) absolyut (cheklanmagan) universaliylar;

5) implikatsion (qayd etuvchi) universaliylar va 6) elementar universaliylar.

Universaliylar masalasini o'rganish tarixi va universaliylarnazariyasining tipologiya uchun ahamiyati. R.Yakobsonning Ostoda bo'lib o'tgan VIII xalqaro tilshunoslar kongressida so'zlagan nutqi va universaliylar nazariyasi. 1961-yilda Nyu-Yorkda lisoniy universaliylar bo'yicha bo'lib o'tgan konferensiya natijalari. "Lisoniy universaliylar haqida memorandum" mazmuni. I.Grinbergning grammatik universaliylar nazariyasiga qo'shgan hissasi. V.G.Gak va lingvistik universaliylar masalasi.

Tipologik tahlil metodlari. Ilmiy bilish metodi. Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik metodlar orasidagi farqlar. V.D.Arakinning tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy bilish metodiga bergan ta'rifi. Bu ta'rif tushunchaning insoniyat tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va amaliy usullar tizimiga asoslanganligi. Til hodisalarining o'zaro aloqador va shartlangan ekanligi. Qiyosiy-tipologik metodning tadqiqot materialini tanlashda cheklanmaganligi. Qiyosiy-tarixiy va tipologik tahlil namunalari.

Qiyoslanayotgan tillarning tipologik jihatdan muhim belgilarini tanlash lingvistik tipologiyaning asosiy muammosi ekanligi. Qiyoslanayotgan tillarning izomorf va allomorf xususiyatlari. Tipologik tadqiqot va tillar tasniflari uchun tasodifiy belgilarni tanlashning nomaqbul ekanligi. V.D.AraKinning

«Сравнительная типология английского и русского языков» asari mazmun-mundariyasi. Turli sath birliklari tuzilishini tipologik qiyoslash birliklari, aniqlik-noaniqlik kategoriyasi.

J.Grinbergning tipologik indekslar metodi. Sintetizm, prefiksatsiya va suffiksatsiya indekslari. Amerikalik tilshunos E.Sepirning tillarni tizimli qiyoslab o'rganish haqidagi mulohazalari. Uning XIX asrda morfologik tasnifi g'oyasini rivojlantirib, formal va semantik tahlillarning yangi mezonlarini ishlab chiqqani. J.Grinberg-E.Sepir g'oyalarining davomchisi. J.Grinberg va tipologik ko'rsatgichlarning son (miqdoriy) indekslari. Tillarda o'zak va affiksalar morfemalarni farqlashning qiyosiy tipologiya uchun ahamiyati. V.Skalichkaning flektiv tillarda so'z yasovchi suffixs va qo'shimchalarning kuchsiz oppozitsiyasi haqidagi fikrlari. Sintetiklik indeksi. Prefiksatsiya indeksi. Suffiksatsiya indeksi.

Xorijiy va o'zbek tillari fonologik tizimlari tipologiyasi. Fonologik sath tushunchasi. Fonologik tizimlari tipologiyasini aniqlash uchun ko'rsatgichlar tanlash. Unli fonemalarning grammatik funksiyalari. Undosh fonemalarning leksik ma'no ifodalashi. Fonologik ko'rsatgichlar fonemalar soni va sifati ko'rsatgichi; oppozitsiya va korrelyatsiya soni va sifatining ikkinchi fonologik ko'rsatgich ekanligi; fonemalarning neytrallashtiruv ko'rsatgichi, fonologik oppozitsiya kuchi ko'rsatgichi.

Xorijiy va o'zbek tillarida unli fonemalarning tipologik ko'rsatgichlari. Xorijiy til tuzilishida unli fonemalarning turlari va ularning o'zbek tilida mavjudligi masalasi. Xorijiy va o'zbek tili unli tovushlari tizimidagi muhim fonologik belgilar. Xorijiy til unililari tizimida oppozitsiyalarning rang-barangligi. Xuddi shunday holat o'zbek tili unililari tizimida kuzatilish/kuzatilmaslari.

Qiyoslanayotgan tillarda unli fonemalarning tipologik ko'rsatgichlari. Qiyoslanayotgan tillarda unli fonemalar miqdorining turlicha ekanligi. Portlovchi, shovqinli, sonor va afrikat tovushlar. Xorijiy va o'zbek tillarida konsonantizmga xos xususiyatlar. Xorijiy tilda jarangli va jarangsiz undoshlar omili. Jarangli jarangsizlik oppozitsiyasining neytrallashtiruv turlari. Xorijiy va o'zbek tillarida undoshlar almashinuvi (чередование). O'zbek va ingliz tillarida burun tovushlari tavsifi.

TARJIMASHUNOSLIK

Badiiy matnlarni tarjima qilish nazariyasi. Turli uslubdagi matnlar tarjimasiga oid asosiy tushunchalar, badiiy matnlar tarjimasiga yo'nalishlari va yangi zamonaviy uslublar haqida ma'lumot. Dunyo olimlarining fan rivojiga qo'shgan

hissasi va xalqaro aloqalar o'rnatilishida badiiy tarjimaning o'ziga xos o'rni. Badiiy matnlar tarjimasiga qo'yiladigan talablar.

Badiiy tarjima va O'zbekistonda badiiy tarjimaning rivojlanish bosqichlari. Badiiy tarjimaning umumiy xususiyatlari. Badiiy asar tarjimonining vazifalari. O'zbekistondagi tarixiy jarayonlarda badiiy tarjima evolyutsiyasi. Taniqli o'zbek badiiy asar tarjimonlari faoliyati va uslublari.

Funksional uslublar. Badiiy uslub Funksional uslublar turi. Badiiy uslub. Badiiy uslubning xususiyatlari. Nasriy, she'riy va drama matnlari. Badiiy uslubda qo'llaniladigan so'zlarning stilistik jihatlari. Badiiy uslubda qo'llaniladigan so'z qatlamlari: terminlari, poetik so'zlar, arxaiik (eskirgan) so'zlar, tarixiy so'zlar, varvarizmlar, chet tilidan kirgan so'zlar, o'zlashma so'zlar, neologizmlar.

Badiiy uslubdagi matnlarning lisoniy xususiyatlari. Matnning lisoniy xususiyatlari tushuntiriladi: a) frazeologik xususiyatlari; b) Grammatik xususiyatlari; v) leksik xususiyatlari. Chet, o'zbek va rus tillaridagi matnlar misolida egallagan nazariy bilimlar asosida tahlil qilish.

Nasriy matnlarni tarjima qilish xususiyatlari. Nasriy asarlar tarjimasiga qo'yiladigan talablar. Badiiy tarjimaga oid nasriy matnlarni o'rganish va ularni tarjima qilish, madaniyat, san'at bilan uzviy bog'liq nasriy matnlarni tarjima qilish, ona tili va o'rganilayotgan chet tilini puxta bilish.

She'riy matnlarni tarjima qilish xususiyatlari. She'riy asarlar tarjimasiga qo'yiladigan talablar. Mumtoz asarlar tarjimasiga qo'yiladigan talablar. She'riy asarlar tarjimasiga grammatik va fonetik qonuniyatlari. Tarjimaning leksik-grammatik va stilistik qiyinchiliklari.

Badiiy matnlar tarjimasining pragmatik muammolari. Pragmatik muammolari o'rganish va tarjimada ularning yechimini topishda qay usullardan foydalana bilish xususida fikr yuritish va matn taxriri orqali amalga oshirish.

Badiiy matnlar tarjimasining lingvokulturologik aspekti. Badiiy matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini talqin etish va tarjima jarayonida tahlil etish.

Badiiy matnlar tarjimasida ekpressiv vositalar va stilistik usullar. Tilning fonetik (segment va supersegment), leksik (so'z yasash, prefiksatsiya, affiksatsiya), grammatik (morfologik, sintaktik) vositalari. Fonetik, leksik va sintaktik stilistik usullar haqida umumiy tushuncha. Stilistik usullarning matndagi funksiyalari.

Badiiy matnlar tarjimasida leksik ma'no turlari. Mantiqiy ma'no. Emotiv ma'no. Nominativ ma'no. Turli leksik ma'no'larning stilistik ma'no yaratishda qo'llash usullari va ularning funksiyalari.

Badiiy matnlar tarjimasida metafora, metanomiya, kinoya. Turli leksik ma'no'larning o'zaro munosabati. Lug'aviy va kontekstual mantiqiy ma'no

Kirish sinovidan 60-69 ball (jami ballning 60-69%) fanni qisman o'zlashtirgan, qo'yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

Kirish sinovida 55% dan kam ball savollarni yoritishda tayanch so'z va iboralar qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarni to'liq yoritish olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo'yiladi.

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishirma tushunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni qabul qilish og'zaki suhbat imtihonlari asosida o'tkaziladi.

BAHOLASH MEZONI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishirma tushunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga nomzodlarni kirish sinovi mavjud o'quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 4 tadan savol bo'ladi. Talabgorning javoblari "0" balldan "100" ballgacha baholanadi.

Har bir variantda 4 ta savol mavjud bo'lib, har bir savol uchun maksimal 25 balldan belgilangan.

Variantdagi savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yoritilsa, 20 – 25 ballgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 14 – 19 ballgacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rta yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 10-14 ballgacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-10 ballgacha qo'yiladi.

№	Umumiy ball	Baho	Tayanch kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
1	20-25	A'lo	Berilgan savollar mazmuni aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to'liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega;	24-25 22-23

munosabatlari. Metafora, metanomiya va kinoya turlari. Birlamchi va derivativ mantiqiy ma'no munosabatiga asoslangan leksik stilistik usullar. So'zlarning ko'p ma'noligi, zevgma va so'z o'yini stilistik usullari.

Badiiy matnlar tarjimasida undov so'zlar, undalmalar, tashbeh, oksimoron, antonomasiya. Mantiqiy va emotiv ma'nolar munosabatiga asoslangan leksik stilistik usullar. Undov so'zlar, undalmalar, tashbeh va oksimoronlarning badiiy matndagi funksiyalari. Mantiqiy va nominativ ma'no munosabatlariga asoslangan antonomasiya leksik stilistik usuli va uning badiiy matndagi funksiyalari. **Badiiy matnlar tarjimasida o'xshatish, perifraza, evfemizm, mubolag'a.**

Narsa yoki hodisaning muayyan xossa yoki xususiyatlarini bo'rttirishga asoslangan leksik stilistik usullar. O'xshatish, perifraza, litota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o'zlashtirma gap tushunchasi, lisoniy ahamiyati va vazifalari.

Badiiy matnlar tarjimasida leksik stilistik usullar (qolip so'zlar, maqol va matallar, epigrammalar, iqtibos, allyuziya). Qolip so'zlar, maqol va matallar, epigrammalar, iqtibos, allyuziyalarning stilistik maqsadlarda qo'llanishi va ularning badiiy matndagi funksiyalari.

Badiiy matnlar tarjimasida taqlidiy so'zlar. Taqlidiy so'zlar. Taqlidiy so'zlarning turlari. Alliteratsiya, assonans. Qofiya va uning turlari. Ritmning matn yaratish xususiyatlari. Matnda xushohanglikni yaratish yo'llari. Fonetik stilistik usullarning funksiyalari.

10.00.06- QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG'ISHIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI BO'YICHA FANLARDAN KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONI

Tayanch doktoranturaga kirish sinovlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son Qarori bilan tasdiqlangan (2-ilova) «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq tashkil qilinadi. Kirish sinovlari ishlarini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Kirish sinovida 90-100 ball (jami ballning 90-100%) fanni mukammal o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga tayanch so'z va iboralaridan foydalanib, nazariy jihatdan asoslangan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yoritilgan talabgorlarga qo'yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko'nikmalari va qo'shimcha manbalardan foydalanish qobiliyati ham hisobga olinadi.

Kirish sinovi 70-89 ball (jami ballning 70-89%) fanni o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga tayanch so'z va iboralaridan foydalanib javob bergan, lekin faqat savolning o'zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

		Imlo va stilistik xatolarga yo'q	20-21
		qo'yilmagan.	
2	14-19	Yaxshi	18-19
		Javoblar to'g'ri yozilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar, chalkashliklarga yo'q yilgan;	
		Javoblarda tayanch doktranturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;	16-17
		Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	14-15
		Savollarda javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun natijalar yuzaki yoritilgan;	12-13
3	8-13	Qoniqarli	10-11
		Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan;	
		Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega, biroq tahlil yetarli emas.	8-9
		Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas, adabiyotdan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan;	4-7
4	0-7	Qoniqarsiz	0-3
		Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; Umuman javob yozilmagan.	

ESLATMA: Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda imtihon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Т.: "Ўзбекистон", 2007.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон иқдоркор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 4 август.
3. Абдуғазизов А.А. Тилшуносликка кириш назарияси. - Т.: Шарқ, 2010. - 262 б.
4. Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия и среды // Вопросы языкознания. - 1991. - №3. - С. 118-126.
5. Бодуэн де Куртэнз И.А. Языкознание или лингвистика 19 века // Избранные труды по общему языкознанию. В 2-х т. - М., 1963. - Т. 2.
6. Бок Ф.К. Структура общества и структура языка. Новое в лингвистике.

- Выпуск VII. Социоллингвистика. Изд. - М.: Прогресс, 1975. - 1706 с.
7. Ван Дейк Т.А. Контекст и познание. Фреймы знаний и пониманиеречевых актов // Язык. Познание. Коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. - С. 12-41.
 8. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 36-298.
 9. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - Москва: «Прогресс», 1985. - 452с.
 10. Гумбольдт Вильгельм фон. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человеческого рода // Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 142-159.
 11. Дж.Лакофф. Женщины, огонь и опасность. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. - Москва: «Прогресс», 1988. (George Lakoff. Classifiers as a reflection of mind. - М.: "Noun classes and categorization". Ed by C. Craig. Amsterdam, 1986).
 12. Дубячинский В.В. Лексикография русского языка. - Москва: «Флинта», 2008. - 432 с.
 13. Есперсен О. Философия грамматики. - М., 1958. - 400 с.
 14. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Подред. Б.А. Серебрянникова. - Москва: Наука. 1973. - С. 315 с.
 15. Принципы описания языков мира. Под ред. В.А. Серебрянникова. - Москва: Наука, 1976. - 343 с.
 16. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. - Ташкент: Фан, 2005. - 268 с.
 17. Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология. - Т.: Bayo2, 2015. - 247 б.
 18. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, 2006. 91б.
 19. Сафаров Ш.С. Прагматингвистика. Монография. - Т., 2008. - 318 б.
 20. Сосюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики. Редакция Ш. Балли и А. Сеше. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 1999. - 432 с.
 21. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Изд. 2-е, испр. и доп. Академический проект. - М., 2001. - 990 с.
 22. Qosimov A, Hamroqulov A, Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - Toshkent: Akademnashr, 2019.
- Интернет манбалар:
1. www.homeenglish.ru
 2. www.englishclub.ru
 3. www.oip.com
 4. www.google.com
 5. www.cl.com, ac.uk «Uzbekistan today»
 6. www.google.co.uz Literature
 7. www.eurasianet.org
 8. www.monash.edu.au > ... > Handbooks > Unit